

VAKILLIK VA ISHONCHNOMA

Raxmatullayeva Parizod

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti 2-bosqich 123-guruh talabasi.

Nazarov Elbek

Ilmiy rahbar. Termiz Davlat Yuridik fakulteti o'qituvchisi.


<https://doi.org/10.5281/zenodo.1555132>

Annotatsiya. Ishonchnoma va vakillik fuqarolik huquqining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib ular shaxslarning huquqiy munosabatlarida o'z manfaatlarini boshqalar orqali ifodalash imkonini beradi. Vakillik orqali vakil beruvchi, o'z manfaatlarini ishonchli shaxs orqali himoya qiladi, ishonchnoma esa ushbu vakolatni yozma ravishda tasdiqlaydi. Vakillik huquqning turli tarmoqlariga mos keladi. Shu o'rinda vakolat beruvchi vakilga ishonch bildirgan holda muhim vazifalarni bajarishni ishonib topshiradi. Quyida berilgan Koreya va Singapur davlatlarida ham vakillik va ishonchnoma, qulay va muhim huquqiy vosita bo'lib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Vakillik, yuridik, ishonchnoma, fuqarolik, sud, huquq, qonun, ustav, vakolatsiz, tijorat, Koreya fuqarolik kodeksi, vakil, bitim, tijorat vakilligi.

Vakillik shaxs yoki tashkilotning huquqlarini himoya qilish, manfaatlarini ilgari surish va qonuniy masalalarda yordam ko'rsatish uchun muhimdir. Ular juda ko'p maqsadlarda ishlatalishi mumkin. Jumladan: huquqiy masalalar bo'yicha yordam kerak bo'lib qolganda, sudda o'z manfaatlarini himoya qilishda ishni osonlashtirishda va vaqt ni tejashda shuningdek psixologik qo'llab quvvatlashda kerak bo'lishi mumkin. Chunki vakillik bir shaxsning boshqa shaxs nomidan Yuridik harakatlarni amalga oshirishda, asosan bir shaxs vakilining vakolat bo'yicha tuzgan bitimini, vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va

majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradigan o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan huquqga ega. Vakillik munosabatlarida ikki tomon ishtirot etadi: Vakil-ishchlarni amalga oshiruvchi shaxs hamda vakil qiluvchi, vakilga o'z nomidan harakat qilish huquqini beruvchi shaxs.



Odatda vakillik yozma ravishda tuziladigan ishonchnoma bilan rasmiylashtiriladi. U quyidagicha qo'llanilishi mumkin:

- Fuqarolik huquqiy shartnomalarini tuzish;
- Savdo va tijorat operatsiyalarida qatnasish;

- Sudda yoki davlat organlarida vakillik qilish;
- Mulk yoki mol-mulkni boshqarish.

Bundan tashqari sudda vakillik qilish ham keng tarqalgan hisoblanadi. Chunonchi fuqarolar va yuridik shaxslar o'zlarining fuqarolik ishlarini sndlarda yoki o'zları bevosa yurgizadilar. Lekin kasallik, kommandirovkada bo'lish, huquq normalaridan yetarlicha xabardor bo'lmaslik, muomala layoqatiga ega bo'lmaslik va shu kabi boshqa sabablar bilan davogar va javobgarlar sud ishini yuritishni boshqa shaxslarga yani vakilga topshirishlari mumkin. Shu sababli yuridik shaxslarning sud ishlarini yurutish o'z xabarları yoki vakillari tomonidan yuritiladi.

Shunday ekan vakillik yuqorida ko'rsatilgan shaxslar nomidan hamda ularning manfaatini ko'zlab sudda ish yuritish bilan bog'liq protsessual harakatlarni amalga oshiradi.

Sudda fuqarolik ishlarining vakil orqali yuritilishi fuqarolik protsessual huquq nazariyasida sud himoyasida bo'lgan huquqni

ta'minlash usullaridan biridir. Kimlar qay tartibda va maqsadda sudda vakillik qilishi mumkinligini quyidagicha aniqlash mumkin:

- Korxona, muassasa, tashkilot, jamoa xo'jaliklari va boshqa tashkilot rahbarlari shu muassasa ishlari bo'yicha;
- Kasaba uyushmalarining vakillari kasaba uyushmalari tomonidan amalga oshiriladigan boshqa shaxslar ishlari bo'yicha;
- Qonun, ustav yoki nizomda o'z a'zolarining huquq va manfaatlarini himoyalash huquqi berilgan tashkilotlarning vakillari;
- Qonun ustavi yoki nizomda boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiladiga tashkilotlar vakillari;
- Advokatlar;
- Taraflar saylagan sud shu ish bo'yicha vakillik qilishga ruxsat etgan shaxslar;
- Ishtirokchilardan biri boshqa ishtirokchilarning topshirig'i bo'yicha vakil bo'la oladilar.

Vakolatsiz vakillik vakil qilinmagan shaxs tomonidan boshqa bir shaxs nomidan tuzilgan yoki vakolatidan tashqari chiqib tuzilgan bitim vakolat bergen shaxs ushbu bitimni keyinchalik maqullaganda u uchun huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi.

Bitim tuzish uchun vakolat bergen shaxs uning ijroga qabul qilinganligidan guvohlik beruvchi harakatlar qilgan holda bitim maqullangan hisoblanadi. Undan tashqari tijorat vakilligi degan

tushunchaham mavjud bo'lib tadbirkorlar shartnoma tuzayotganlarida ular nomidan mustaqil ravishda vakillik qiluvchi shaxs vakilning vakolatlari ko'rsatilgan yozma shartnoma orqali bunday vakolatlar ko'rsatilmaganda esa ishonchnoma asosida ish olib boradi. Shuningdek ko'pchilikning shaxsiy va boshqa huquqiy munosabatlarida duch keladigan ishonchnoma haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bir shaxs ya'ni ishonch bildiruvchi tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat hisoblanadi. Ishonchli vakil esa shu ishonchnomada berilgan vakolatlar asosida ish olib boradi.

Yuridik shaxs nomidan esa yoki yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxs ustaviga zid bo'lmanган bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin. Ishonchnoma ko'pi bilan 3 yil muddatga beriladi. Agar unda muddat ko'rsatilmagan bo'lsa u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o'z kuchini saqlaydi.

Berilgan kuni ko'rsatilmagan ishonchnoma esa haqiqiy hisoblanmaydi. Ishonchnomaning amal qilishi quyidagi holatlarda bekor qilinadi:

- Ishonchnoma muddatining tamom bo'lishi;
- Ishonchnoma bergan shaxsning uni bekor qilishi;
- Ishonchnoma berilgan shaxsning bosh tortishi;
- Nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to'xtatilishi;
- Ishonchnoma bergan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb hisoblanishi yoki vafot etishi bilan;
- Ishonchnomani bergan shaxs undan hohlagan paytda voz kechishi yoki uni bekor qilishi mumkin.

Chet el tajribasida ko'radigan bo'lsak Koreyada vakillik deganda bir shaxsning boshqa shaxs nomidan ish yuritishi va huquqiy harakatlarni amalgalash oshirishi tushuniladi. Hamda fuqarolik huquqiy munosabatlarida, tijorat va sud jarayonlarida keng qo'llaniladi. Koreya fuqarolik kodeksida vakillik asosan 114-137-moddalarni o'z ichiga oladi. Ushbu bo'limlarda vakolatning mohiyati, vakolatni berish va tasdiqlash tartibi, vakolatdan oshib ketgan harakatlar oqibatlari, vakillikning tugatish asoslarini ko'rish mumkin. Koreya fuqarolik kodeksida vakillik huquqi aniq belgilangan bo'lib shaxslar o'rtasida huquqiy munosabatlarni boshqaruvchi muhim istitutlardan biri hisoblanadi. Bu kodeksning vakillik huquqi bir nechta asosiy tamoyillar va qoidalarga asoslanadi. Koreya fuqarolik kodeksiga ko'ra vakillik huquqi asosan ishonchnoma asosida vujudga keladi chunki bu vakillikning eng keng tarqalgan shaklidir. Qonunga asoslangan vakillik esa bolalar, nogironlar yoki boshqa huquqiy cheklavlarga ega bo'lgan shaxslar vakili sifatida vasiylar va homiylar tomonidan amalgalash oshiriladi. Vakillikning bekor qilinishi esa vakolat muddati tugaganida, vakil yoki vakil qilingan shaxsning o'limi tufayli vakolatning bekor qilinishi yoki bekor qilinganligi sababli amalgalash oshiriladi. Agar vakil o'z vakolatlarini oshirib yuborsa bunday harakatlar vakil qilingan shaxs tomonidan tasdiqlangunicha huquqiy kuchga ega emas hisoblanadi. Vakil o'z vakolatlarini bajarishda vakil qilingan shaxsning manfaatlariga zid harakat qilganda javobgarlikga tortilishi mumkin. Shu tufayli koreya huquq tizimidagi vakillik uchga yani: huquqiy vakillik, ishonchnoma orqali vakillik va sud vakilligiga bo'linadi.

Ishonchnoma orqali vakillikda vakil qiluvchi tomonidan berilgan vakolatlar dorasidan chiqmaslik juda muhim hisoblanadi.

Singapur qonunchiligidagi esa vakillik huquqi huquqiy va tijorat faoliyatida muhim o'rinni tutadi. Vakillik instituti fuqarolik huquqi, biznes va sud jarayonlarida keng tarqalgan hisoblanadi va ularda vakillik turli xil shakllarda bo'lishi mumkin.

Singapurda huquqiy vakillik (legal Representation) keng tarqalgan bo'lib voyaga yetmaganlar yoki layoqatsiz shaxslar, ota onalar yoki qonuniy vasiylar, voyaga yetmaganlar yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlarini himoya qiladi. Agar shaxs o'zining huquqlarini mustaqil amalgalash oshira olmasa sud tomonidan vasiy tayinlanadi. Ishonchnoma orqali vakillik esa umumiy va maxsus ishonchnomalarga bo'linadi. Umumiy ishonchnoma vakiliga keng vakolatlar beradi. Masalan mulk sotish yoki moliyaviy masalalarni amalgalash oshirish, maxsus ishonchnomalar esa aniq bir ishni bajarish uchun vakil tayinlanadi. Masalan: biron bir bitim tuzish. Tijorat vakilligi esa korporatsiyalar yoki kompaniyalar nomidan shartnomalar tuzuvchi shaxslar hisoblanadi.

Direktorlar yoki menejerlar kompaniyada vakillik huquqiga ega bo'lib kompaniya nomidan qarorlar qabul qilishi mumkin. Singapurdagi so'nggi sud vakilligi (Litigation Representation)da advokatlar faqat litzensiyaga ega bo'lgan taqdirda sudlarda vakillik qilishi mumkin. Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha advokatlar zarur huquqiy yordamni taqdim etadi.

Shunday ekan Singapurdagi vakilliik munosabatlari qat'iy qonunlar bilan tartibga solinadi. Vakolatlar aniq belgilanmagan bo'lsa vakil harakatlari cheklangan bo'lishi mumkin hisoblanadi. Vakilli bilan bog'liq barcha hujjatlar va ishonchnomalar aniq, tushunarli va rasmiylashtirilgan bo'lishi talab qilinadi.

Xulosa o'rnilida shuni aytishimiz mumkinki, vakillik va ishonchnoma orqali ishlarni olib boorish bir qancha qulayliklarni olib keladi hamda ushbu imkoniyatlardan foydalanishga yordam beradi. Masalan, vakil ishlarni mijoz nomidan amalga oshiradi, bu esa mijozga boshqa muhim masalalarni bajarishiga yordam beradi.

Vakil odatda o'z sohasida tajribaga ega bo'ladi, bu ularning ishlarining to'g'ri va qonuniy hal qilinishiga yordam beradi. Vakillik munosabatlari asosan shartnoma, qonun yoki boshqa yuridik asos bilan o'rnatilishi ham mumkin. Shuningdek vakil ishlarni ishonch bildiruvchining manfaatlariga muvofiq amalga oshirishi kerak.

Ular ko'pincha yirik huquqiy harakatlar misol uchun sud ishlari yoki shartnoma tuzish uchun qo'llanilishi mumkin. Vakillik va ishonchnoma bir biridan qanday farq qilishi mumkin.

Vakillik agar shaxs ishlarini qonuniy asosda o'zi bajara olmagan taqdirda kerak bo'ladi. Ishonchnoma esa shaxsning vakolatlarini faqat ma'lum bir vazifa uchun topshirmoqchi bo'lganda qo'l keladi. Ammo vakillik kengroq huquqiy tushuncha bo'lib, juda ko'p hollarda shartnoma asosida o'rnatiladi. Ishonchnomaning vazifasi esa hamma vakolatlarni qonuniylashtirishdan iborat. Shunday ekan bu vositalar orqali huquqiy ishlarni yanada qulayroq va samarali bajarish imkoniyatini qo'lga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

REFERENCES

1. Fuqarolik protsessual kodeksi;
2. Fuqarolik kodeksi;
3. Civil Law Act 1909-Singapore;
4. Korean civil code;
5. Lex.uz;
6. Vakillik Wikipedia.